



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 22-oktabr

572-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-344-son qarori ijrosi haqida”gi 482-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-151-son Farmoni, 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-344-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-oktyabrdagi 482-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-oktyabrdagi 482-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-344-son qarori bilan:

Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligining tashkiliy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

Bog‘dorchilik, uzumchilik, issiqxona xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish hamda tizim faoliyatini tubdan takomillashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq;

2024-2027-yillarda anjir, funduk va zaytunzorlarni tashkil etishning maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Quyidagilar:

Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi va Vinochilikni rivojlantirish jamg‘armasining qoldiq mablag‘lari hamda avval ajratilgan resurslarning (ssuda, subsidiyalardan qaytgan, qarzar) qaytishidan tushadigan mablag‘lar, xizmat ko‘rsatishdan tushadigan mablag‘lar, vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni tijorat banklarining depozitiga joylashtirish hisobidan tushadigan foizlar;

Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan loyihaning texnik-iqtisodiy asoslariga muvofiq yaratiladigan yangi bog‘ va tokzorlardan undiriladigan bir martalik yig‘imlar;

O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan ajratiladigan transfertlar va ssudalar;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlarining kreditlari (qarz mablag‘lari) va grantlari;

“tayyor holda barpo etish” tamoyiliga asosan tashabbuskorlarga lizing asosida ochiq elektron auksion savdolari orqali bog‘ va tokzorlarni sotishdan tushgan tushumlar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar Agrosanoatni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasini (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma)ni shakllantirish manbalari etib belgilanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2025-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida Jamg‘armaga 150 milliard so‘m budjetdan transfert rejalashtirib borilishini ta‘minlashi;

Belgilanishicha, Davlat budjeti hisobidan, xususan, avvalgi yillarda Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasiga ajratilgan budjet ssudalarining qaytgan qismi hisobidan har yili qo‘shimcha ravishda 300 milliard so‘m budjet transfertlari Jamg‘armaga yo‘naltirilishi va ushbu mablag‘lar, shuningdek, Vinochilikni rivojlantirish jamg‘armasidan Jamg‘armaga o‘tkazilgan mablag‘lar maqsadli ravishda respublika hududida yangi bog‘ va tokzorlar yaratish loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilishi;

Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan ilmiy va ta‘lim tashkilotlari, xalqaro tashkilotlar, xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislari hamda ekspertlarini maslahatchi sifatida jalb qilishga ruxsat etilganligi;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda Agentlik tomonidan Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat yo‘nalishidagi subsidiyalar turlarini bir oy muddatda maqbullashtirishi;

Qishloq xo‘jaligi vazirligi Agentlik, Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 1-dekabr qadar sohada amalga oshirilayotgan ishlar, yangiliklar, bilim va ko‘nikmalarni doimiy foydalanuvchilarga yetkazib berish uchun elektron platforma ishlab chiqishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-martdagi “O‘zbekiston Respublikasida bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4246-son qarorining 2, 4 va 6-bandlari o‘z kuchini yo‘qotganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan

Viloyatda 2024-2027-yillarda anjir, funduk va zaytunzorlarni tashkil etishning maqsadli ko‘rsatkichlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.Xakimov, Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (N.Xudoyberdiyev), Agrosanoatni rivojlantirish agentligi (B.Axmadjanov), tuman hokimliklari bilan birgalikda viloyatda “Worldagro Sonsultancy Organizatsiya.Sh.” kompaniyasi bilan hamkorlikda sanoatlashgan bog‘ plantatsiyasini tashkil etish maqsadida, loyihani amalga oshirish uchun Namangan viloyati tumanlaridan 4 ming gektar yer maydonini (past hosilli paxta va g‘alla hamda boshqa ekinlar) aniqlash, yerni qonunchilikda belgilangan tartibda ajratish hamda loyihani amalga oshirishni boshlash chorasini ko‘rish topshirilganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4.Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov, Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda bir oy muddatda Agentlikning hududiy bo‘linmalari ish faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratish, bunda, tuman hokimligining ma‘muriy binosi yoki boshqa idora, tashkilotlardan alohida xona ajratib, zaruriy ish sharoiti, uskuna va jihozlar bilan ta‘minlash choralari ko‘rsin.

5.Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), Agrosanoatni rivojlantirish agentligi loyixa ofisi (X.G‘ulomov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

Tumanda mavjud mevali bog‘ va uzumzorlarni xatlovdan o‘tkazish va ularning ro‘yxatini shakllantirish;

bog‘ va uzumzorlarning elektron ro‘yxatini raqamlashgan (geoportal) axborot tizimiga doimiy joylashtirish choralari ko‘rsin.

6.Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (X.Inomov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

anjirchilik bilan to‘liq va qisman shug‘ullanayotgan aholi tomorqalarida Romitan va Urganch tajribasi asosida anjir yetishtirishni rivojlantirsin, bunda, mahallalarda anjir ekadigan xonadonlar ro‘yxatini shakllantirib, ko‘chat yetkazib beruvchi subyektlarni aniqlasin;

anjir ko‘chatini ekadigan xonadonlar talabidan kelib chiqib, moliyaviy (kredit) resurslar ajratilishida amaliy yordam ko‘rsatsin.

7.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmlariga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov